



ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1 (4) 2024

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 1(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор.

Мавланов уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети Тарих факултети доценти

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўқтамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Хошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирхолжаева Гулнора Абдукаххаровна – т

Турдиев Ҷекруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфзизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

Закирова Феруза Махмудовна - педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Хайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Электрон журнал **1368-сонли гувоҳнома** билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEM S TEAM” маъсулияти чекланган жамияти.

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Mustafoyev Abubakr Muhiddin o'g'li</i>	
XIII VA XIV-ASRDA YASHAB IJOD ETGAN BUXORO FAQIHLARI VA ULARNING ASARLARI	
TAVSIFI (1-qism).....	9-14
<i>Mirzayev Avazbek</i>	
ANDIJON TAJRIBA PAXTA DALASI TARIXINING ARXIV HUJJATLARIDA YORITILISHI	15-21
<i>Алиджанова Лазизахон Аббасовна</i>	
ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ДИН ВА ТАБОБАТ МАСАЛАСИНИ ЎРГАНИШДАГИ	
ЁНДАШУВЛАР	22-28
<i>Sobirov Sardorbek Abdusattor o'g'li</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMIDA SHARQIY TURKISTONDA ROSSIYA VA BRITANIYA	
IMPERIYALARI RAQOBATI	29-34
<i>Джалолов Бахром Джамалович</i>	
СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА “ПАХТАЯККАҲОКИМЛИГИ” СИЁСАТИ ВА	
БОЛАЛАРГА КЎРСАТГАН ТАЪСИРИ	35-39
<i>Maxmatkulova Nozikoy Choriyevna</i>	
O'ZBEKISTONDA XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA IRRIGATSIYA-MELIORATSIYA VA	
QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIALASH SOHASIDA YURITILGAN KADRLAR	
SIYOSATI	40-45
<i>Ochilov Farhod</i>	
O'ZBEKISTONDA O'ZINI O'ZI BOSHQARISH ORGANLARINING AHOLINI IJTIMOIY HIMoya	
QILISHDAGI FAOLIYATI	46-52
<i>Ҳамроева Нодира Нормуродовна</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ЕР-СУВ ИСЛОҲОТИ ЖАРАЁНИДА ИЖТИМОЙ МУОММОЛАР	53-58
<i>Мамажонов Алишер, Алишеров Абдувоҳид Алишерович</i>	
ЎЗБЕКИСТОНДА ГИДРОЭЛЕКТР СТАНЦИЯЛАРНИНГ БАРПО ЭТИЛИШИ ТАРИХИ	59-65
<i>Tursunov Ravshan Normuratovich</i>	
XIX-ASRNING IKKINCHI YARMI – XX-ASR BOSHIDA TURKISTON O'LKASIDA SODIR BOLGAN	
ZILZILALAR TARIXIGA BIR NAZAR	66-71

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Умурзакова Мўътабархон Нодир қизи</i>	
СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ СОҲАСИНИ ТИББИЙ СУҒУРТА АСОСИДА МОЛИЯЛАШТИРИШ	
МОДЕЛИ	72-78
<i>Ro'zmetov Baxodir Shomurotovich</i>	
TURIZMDA XIZMATLAR MOHIYATI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI	
TA'MINLASHDAGI O'RNI	79-90
<i>Shanazarova Nilufar Baratovna</i>	
MILLIY IQTISODIYOTDA TRANSPORTNING AHAMIYATI	91-99
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i>	
АВТОТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ	
МОХИЯТИ	100-109

<i>Болтаев Нурали Шираматович</i>	
АГРАР ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА КАДРЛАР САЛОҲИЯТИНИ БАҲОЛАШ МЕЗОНЛАРИ	
АСОСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШНИНГ ЙЎНАЛИШЛАРИ	110-118
<i>Эрханов Муҳаммаджон Абсайитович</i>	
ДАВЛАННИНГ ХАЛҚАРО РЕЙТИНГ ВА ИНДЕКСЛАРДАГИ ЎРНИНИ ЯХШИЛАШДА	
ИҚТИСОДИЙ БАРҚАРОРЛИКНИНГ ЎРНИ	119-124
<i>Жураева Гульзира</i>	
АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В	
МЕЖДУНАРОДНОЙ ТОРГОВЛЕ И УСЛУГАХ В ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ	125-130
<i>Akbarov Husan O'zbekxonovich</i>	
BOG'DORCHILIKDA TEXNIK SAMARADORLIKNI TAHLIL ETISHNING PARAMETRIK VA	
NOPARAMETRIK USULLARI	131-136
<i>Yaqubova Yulduz Raimovna</i>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTALARINING ISHLAB CHIQARISHINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH	
KO'RSATKICHLARI	137-147
<i>Рахимбаев Акмал Азатбоевич</i>	
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДЛАРИНИ САНОАТГА ИХТИСОСЛАШУВ ДАРАЖАСИНИ ТАРМОҚЛАР	
БЎЙИЧА АНИҚЛАШ	148-157
<i>Saidmurodov Feruz Sodiqjon o'g'li</i>	
SAMARALI SOLIQ SIYOSATI-INNOVATSION RIVOJLANISHGA O'TISHNING ASOSIY	
SHARTI	158-170

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Наврӯзова Гулчехра Нигматовна</i>	
БАҲОУДДИН НАҚШБАНД РУБОЙЛАРИНИ ШАРҲЛАГАН Аллома	171-175
<i>Шарифходжаева Наргиза Абдуманнановна</i>	
ФИЛОСОФИЯ СВОБОДЫ, РАВЕНСТВА И СОЦИАЛЬНОЙ СПРАВЕДЛИВОСТИ МУХАММАДА	
АЛИ ДЖИННЫ	176-181
<i>Nasimov Azizbek Azimovich</i>	
AXBOROTLASHGAN JAMIyat RIVOJLANISHIDA AXLOQIY QADRIYATLARNING FALSAFIY	
МОНИЯТИ	182-186
<i>Norkulov Olim Nasimovich</i>	
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MIGRATSİYANING AHOLI AXLOQIY QADRIYATLARIGA	
TA'SIRI	187-191
<i>Хасанов Бобуржон Ҳакимович</i>	
ОММАВИЙ НОРОЗИЛИКЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ	
ИСТИҚБОЛЛАРИ	192-197
<i>Quramboyev Alisher Maxsudovich</i>	
YANGI O'ZBEKİSTON VA İJTİMOİY DAVLATÇILIK	198-204
<i>Raxmonberdiyev Islombek Ilxom o'gli</i>	
SİVİLİZATSIYALAR TARAQQIYOTIDA MADANIYATLAR TO'QNASHUVINING İJTİMOİY-	
FALSAFIY AHAMIYATI (Samuel F. Xantingtonning "Sivilizatsiyalar to'qnashuv" asari	
asosida)	205-214

Shukurov Orif Jumaboyevich

JAMIyatda yoshlarning ijtimoiy aktivligini oshirish

xususiyatlari va tamoyillari 215-219

10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*Akhmedov Oybek Saporbayevich*

Theoretical overview of the definition "term" and "terminology" in

linguistic surveys 220-227

Ravshanova Gulruxbegim Қаҳрамон қизи

ЯНГИ ЎЗБЕК ШЕ'РИЯТИДА ҲАЖВНАВИСЛИК АНЪАНАСИ 228-232

Ortiqova Mavluda Nurmahammadovna

AQOID ILMIDA KAROMAT TUSHUNCHASI VA BADIY ADABIYOTDAGI TALQINI 233-237

Uliqova Mavludaxon

“QON-QARINDOSH” KONSEPTINI FONETIK-FONOLOGIK SATHDA NAMOYON

BO'LISHI 238-243

Rahmonov Asror ibni Nusrat

HERMANN HESSE HAYOTI, IJODI VA ADABIYOTDAGI O'RNI 244-252

Raxmatova Dilafruz Nusratilloyevna

SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI 253-258

Djuraeva Muxlisa Shadiyarovna

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA OILAVIY NUTQDAGI IJTIMOIY-MADANIY FARQLAR 259-265

Vokhidova Tamanno Saidjonovna

MEDIALINGUISTICS AS A MODERN SCIENTIFIC DIRECTION 266-271

Djurayeva Shahlo G'ulom qizi, Sattarova Ismigul Baxtiyorovna

INGLIZ ADABIYOTLARIDA KIRITMA BIRLIKLARNING BADIY SEMANTIKASI 272-277

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР*Uzakova Go'zal Sharipovna*

O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASIDA “YASHIL QURİLISH”NI AMALGA OSHIRISHNING HUQUQIY

MASALALARI 278-286

Mirzaev Shukhrat Shavkatovich

СУЩНОСТЬ И СОДЕРЖАНИЕ КАТЕГОРИИ ПРАВОПОНИМАНИЯ 287-293

Qosimov Botirjon Ma'rufjon o'g'li

SUD HOKIMIYATINING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI: KONSTITUTSIYAVIY TAHLIL 294-301

Islombek Abdikhakimov

QUANTUM COMPUTING AND LEGAL READINESS FOR E-GOVERNMENT SERVICES 302-309

Xodjaeva Shirokhon Olimxon kizi

ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СУДЕБНОЙ

СИСТЕМЕ 310-315

Jiyenbayev Baxadir Ospanovich

EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHNING AYRIM XUSUSIYATLARI: MILLIY VA

XORIJY TAJRIBA 316-322

Alishaev Sobir Tursunboevich

СУД ҲУКМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА РАҶАМЛАШТИРИШ

ИМКОНИЯТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ 323-329

<i>Адембаев Аралбай Куралбаевич</i>	
АЙРИМ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ЖИНОЯТ ҚОНУНЛАРИДА ТРАНСПОРТ ВОСИТАЛАРИ ҲАРАКАТИ ЁКИ УЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХАВФСИЗЛИГИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖАВОБГАРЛИК МАСАЛАЛАРИ	330-339

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Матенов Рашид Бекимбетович, Анатолий Викторович Тряпельников</i>	
ЮРИДИЧЕСКИЙ ТЕКСТ КАК ОБЪЕКТ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ- ЮРИСТОВ: ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕЖОТРАСЛЕВЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	340-346
<i>Xajiyeva Iroda Adambayevna</i>	
TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALARNING O'RNI	347-351
<i>Ayatov Raximberdi Ibragimovich</i>	
XORIJUY TILDA TURIZM VA MEHMONXONA BIZNESI SOHASIGA OID SO'Z VA IBORALARNI O'QITISHDA TIL KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH	352-357
<i>Saidova Dilobar Ikrambayevna</i>	
MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARIDA IJTIMOIY XULQ-ATVORNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI	358-361
<i>Eshqobilov Elmurod Menglimurod o'g'li</i>	
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHISINING KASBIY-PEDAGOGIK IJODKORLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	362-367
<i>Ҳамдамова Шахноза Юсупалиевна</i>	
ТИББИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФАНЛАРАРО ИНТЕГРАЦИОН ЁНДАДАШУВ АСОСИДА ТАЛАБАЛАРНИ КАСБИЙ ЛАЁҚАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ	368-375
<i>Janonova Sitora Berdinazarovna</i>	
TA'LIM VA TARBIYA TARAQQIYOTIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING O'RNI	376-381
<i>Турсунбоева Мухлиса Анвар қизи</i>	
ТАБИИЙ ФАНЛАР ФАКУЛЬТЕТЛАРИДА ИНГЛИЗ ТИЛИНИ КАСБГА ЙЎНАЛТИРИЛГАНЛИК АСОСИДА ЎҚИТИШ ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА	382-387
<i>Bakhadirova Shoxina Nadir kizi</i>	
INGLIZ TILIDA GAPIRISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHGA YO'NALTIRILGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLARNI ONLINE KO'RINISHDA O'QITISH	388-392
<i>Qurbanova O'lmasoy Usmonovna, Niyozova Shohista Nusratilloyevna</i>	
OILA BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK OMILLARI	393-397
<i>Xudayberdiyeva Mahliyo Zayniddin qizi</i>	
BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV ASOSIDA KASBIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI VA INNOVATSION METODLARI	398-403

Xajiyeva Iroda Adambayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Urganch filiali dotsenti

**TALABALARGA ZAMONAVIY O'ZBEK SHE'RIYATI VA FOLKLOR MUNOSABATINI
TUSHUNTIRISHDA PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARING O'RNI**

Annotatsiya. Ushbu maqolada folklor va yozma adabiyotning bir-biriga o'zaro ta'sirini pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirish xususida fikr yuritildi. Dars jarayonida samaradorlikka erishish uchun pedagogik texnologiya va pedagogik vositalar to'g'ri tanlash lozimligiga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: folklor, yozma adabiyot, janr, maqol, ta'sirchanlik, metod, texnologiya, vosita, tushuntirish, dars.

Khajieva Iroda Adambaevna –
Associate professor of Urgench branch of TATU named
after Muhammada al-Khwarizmi

**THE ROLE OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN EXPLAINING MODERN UZBEK
POETRY AND FOLKLORE TO STUDENTS**

Abstract. This article deals with the explanation of the interaction between folklore and written literature with the help of pedagogical technologies. To achieve effectiveness in the lesson, attention was paid to the need for the correct choice of pedagogical technology and pedagogical tools.

Key words: folklore, written literature, genre, proverb, impression, method, technology, tool, explanation, lesson.

Хажиева Ирода Адамбаевна
доцент Ургенчского филиала ТАТУ им. Мухаммада аль-Хорезми

**РОЛЬ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБЪЯСНЕНИИ СТУДЕНТАМ
СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ И ФОЛЬКЛОРА**

Аннотация. В данной статье рассмотрено объяснение взаимодействия фольклора и письменной литературы с помощью педагогических технологий. Для достижения эффективности на уроке было обращено внимание на необходимость правильного выбора педагогической технологии и педагогического инструментария.

Ключевые слова: фольклор, письменная литература, жанр, пословица, впечатление, метод, технология, инструмент, объяснение, урок.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I1Y2024N47>

Kirish. Talabalarga ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda zamonaviy o'zbek she'riyati va folkloarning o'ziga xos o'rni va ahamiyati borligini tushuntirish talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda qadriyatlarning shakllanish jarayonini

anglatish muhimdir[12]. Vaholanki, ajdodlarimizning boy merosi zamirida folklor namunalari yotadi. Ya'ni og'zaki ijod namunalari yozma adabiyotdan oldin paydo bo'lgan va yozma adabiyotga zamin hozirlagan. Bu esa ma'naviy qadriyatlarni talabalarga tushuntirishda folkloarning mohiyatini anglatish dolzarbligini oshiradi. N.Mallayev ta'biri bilan aytganda, so'z san'ati yozuv va yozma adabiyotdan ko'p zamonlar ilgari og'zaki ijod sifatida vujudga keldi. Uning ijodkori – kollektiv, barcha moddiy boyliklarning ham, ma'naviy boyliklarning ham "yagona va bitmas manbai bo'lgan"[3] xalqdir[4].

Yozma adabiyot folklor janrlarini o'z qolipiga solib, asrlar davomida sayqallashtirib, mukammal darajaga chiqardi. Taraqqiyotning bunday ko'rinishi nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyotiga ham taalluqlidir. Biroq yozma adabiyot va folklor alohida o'ziga xoslikka ega bo'lgan ilmning tarmog'i hisoblanadi.

Bugungi kunda davlatimizda yoshlarni ma'naviy qadriyatlar ruhida tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "...adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"[1].

Xalq ma'naviyatini, estetikasini, odob-axloqini mukammallashtirishga xizmat qiladigan, dunyoqarash va tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladigan qadriyatlarni o'rganish, kitobxonlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilgani ayni muddaodir. Vaholanki, "...Kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma'naviyatga erishib bo'lmaydi. Kitob o'qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo'q"[2].

Darhaqiqat, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish nafaqat badiiy asarlarni o'qish, balki ularning mazmun-mohiyatini ta'lim jarayonida o'quvchi va talabalarga tushuntirishni ham taqozo etadi[11]. Har bir badiiy asar zamirida xalqning orzu-istiklari, o'tmishi va matonati ijodkorlar dunyoqarashi nuqtai nazaridan talqin etilgan. Aksariyat hollarda mazmun ixcham fikrlarga singdiriladi. Bu esa kitobxonga yozuvchi yoki shoirning maqsadini tushunishda qiyinchilik tug'diriladi. Shu bois ma'naviyat, adabiyot darslarida o'rganilishi lozim bo'lgan asarni pedagogik vosita va texnologiyalar yordamida sodda va ravon tilda tahlil qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yozma adabiyotga folkloarning ta'siri masalalari adabiётшуносликда ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan. Bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. N.Mallayev, G.Jalolov, O.Nosirov, O.Sobirov, G.Mo'minov, O.Safarov, I.Yarmatov, L.Sharipova, N.Karimov, U.Hamdam, Д.Хажиева kabi olimlarimiz yozma adabiyotning taraqqiyotida folkloarning o'rni va ahamiyati to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Masalaning axloqiy-estetik tarbiya va madaniyat, ma'naviy madaniyat, milliy iftixon, Vatan ravnaqi, talabalar-yoshlar ma'naviyatini shakllantirishning pedagogik asoslarini ishlab chiqish B.Adizov, O.Jamoliddinova, I.Isayev, A.Ibroximov, Z.Ismoilova, I.Karimov, N.Komilov, U.Mahkamov, R.Mamatqulova, S.Nishanova, D.Ro'ziyeva, R.Rustamova, A.Umarov, B.Xodjayev, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, N.Egamberdiyeva, M.Quronov, Sh.Qurbanov, M.Qahharovalarning ishlarida tadqiq qilingan.

Maqolada tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqlari, qaror va farmonlari metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mavzu adabiyotshunoslik tahlili va qiyosiy metod asosida muhokamaga tortiladi.

Natijalar. Talabalarga o'zbek adabiyoti rivojida folklor namunalarining ta'sirini pedagogik texnologiyalar yordamida tushuntirishda quyidagilar muhim omil sifatida belgilandi:

- folklor vositalarining zamonaviy adabiyotdagи о'rni va ahamiyatini tushuntirishda pedagogik vositalarning zaruriyligi ta'kidlanadi;
- folkloarning eng kichik janri nuqtai nazaridan adabiy ta'sir masalalarini talabalarga kengroq tushuntiriladi;
- mumtoz va zamonaviy adabiyot vakillarining ijodidan namunalar keltirish orqali talabalarda mavzu yuzasidan kengroq tasavvur hosil qilishga erishiladi.

Muhokama. Talabalarga folklor janrlari to'g'risida dastlab umumiylumot beriladi. Zamonaviy o'zbek adabiyotida folkloarning maqol, topishmoq, ertak, afsona, doston kabi janrlarini adabiylashtirish ko'zga tashlanadi. Maqolada xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning bir-biriga o'zaro ta'siri masalasini maqol janrining qo'llanishi asosida tushuntirishni maqsad qildik. E'tiborli jihat shundaki, nafaqat zamonaviy, balki mumtoz adabiyot vakillari ham xalq ijodiyoti namunalaridan samarali foydalangan. Bu ko'pincha xalq maqollarini qo'llashda ko'proq kuzatiladi. Aytaylik, L.Sharipova o'zining tadqiqotlarida Alisher Navoiyning maqol qo'llashdagi mahoratini quyidagicha ko'rsatadi:

"Alisher Navoiy "Ishq aynidin ko'zumni qilmadi yoruq jahon" deb boshlanuvchi g'azalida "It hurar – karvon o'tar" maqolini qo'llaydi:

Boribon ahbob-u men g'aflat asiri bo'l mag'im,
Uyladurkim, it uyub qoldi-yu ko'chti korvon.

Bobokalonimiz o'git bergen, xalq maqolidagi mazmunni tasdiqlagan bo'lsa, A.Oripov o'kinch bilan xalq xulosasiga qo'shimcha qilgan"[5].

Dars jarayonida elektron taqdimotdan foydalanish talabalarda mavzu yuzasidan dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi[13]. Shuningdek, "Blis-so'rov" metodi orqali dastlab talabalar "It hurar, karvon o'tar" maqolining mazmunini qanday tushunganligi aniqlab olinadi. Keyin boshqa shoirlar, jumladan, Erkin Samandarov ijodida aynan shu maqolni yangi talqinda o'qiymiz:

Fursat o'tar, on o'tar,
Chin qolar, yolg'on o'tar,
It hurar, karvon o'tar,
Karvon bo'l, ona tilim[6].

She'riyatda maqollarning qo'llanishi she'rning ta'sirchanligiga erishish bilan birga asarning xalqchilligini ham oshiradi. Bu nazariy jihatdan ham adabiyotshunos olimlar tomonidan isbotlangan. Jumladan, B.Sarimsoqov yozadi: "yozma adabiyotda xalq maqollari, matallari, yumuq iboralar, og'zaki nutq uchun xos ifoda hamda oborotlarning qo'llanishi oddiy folklorizm"[7].

Dars jarayonida tahlil faqat bir maqolga bog'lanib qolmasligi kerak. Aytaylik, "Uyqu o'limdir" maqoli (yumuq ibora)ni bugungi kunda yaratilayotgan imkoniyatlar va vaqtini behuda sarflayotgan yoshlarga bog'lab tahlil qilish ayni muddaodir.

Alisher Navoiyning ko'plab asarlarida xalq maqollaridan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin:

Usholdi tosh birla ul qotiq bosh,
Masaldurkim, "ushotur boshni tosh"[8].

..... Ko'z ochmassen, debon: "kelgan qulumdur",
Masal chin bo'ldikim: "Uyqu – o'lumdur"![8]

Xalq maqollarini O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf she'rlarida ham o'z o'rnida mahorat bilan qo'llanganini uchratamiz. Shoirning "Nima qilay" she'ridagi quyidagi misralar fikrimizga dalil bo'la oladi:

Onam aytar; bu dunyoda bola aziz,
Bolam-ku, bol, menga dard-u nola aziz.
Sochlaringdan to'kilgan bir tola aziz,
Umrim o'tsin sochlaringni silay-silay,
Bir Mashrabi devonangman, nima qilay?[9]

Shoir bu she'rida xalq og'zaki ijodidagi "Bola boldan shirin" maqolini misralar qa'riga mahorat bilan singdiradi.

Talabalardan "Aqliy hujum" metodini qo'llab, nasriy asarlarda xalq maqollaridan foydalanilgan badiiy asarlarga misol keltirish so'raladi. O'z navbatida talabalar aytgan asarlarda yozuvchi nima maqsadda maqoldan foydalanganini izohlash kerakligi aytildi. Bu talabalarning badiiy asar o'qishga ehtiyojini orttiradi, qolaversa, kitobxonlik madaniyatini rivojlantiradi hamda asarning mazmunini tushunishga imkon beradi. Ma'lumki, xalq og'zaki ijodiyotidagi maqollardan yozma adabiyotda foydalanish to'g'risida fikr yuritilganda Abdulla Qahhorni eslamaslikning iloji yo'q. Adib deyarli barcha hikoyalariga xalq maqollaridan epigraf keltirib, butun hikoya davomida maqolni isbotlaydigan hikoyani bayon qiladi. O'z-o'zidan maqol shunchaki paydo bo'lgan emas, asrlar davomida insoniyatning hayotiy tajribasining mahsuli ekanligi Abdulla Qahhor tomonidan yana bir bor isbotlanadi. Adibning "O'g'ri", "Munofiq", "Bemor", "Oshiq", "Ko'r ko'zning ochilishi" (misol) kabi hikoyalarini misol qilishimiz mumkin. Jumladan, adibning "Bemor" hikoyasida "Osmon yiroq, yer qattiq" maqoli epigraf sifatida tanlangan bo'lsa, hikoya davomida ham maqolga murojaat etiladi: "Allaqanday bir xotin kelib tolning xipchini bilan savaladi, tovuq so'yib qonladi... Bularning hammasi, albatta, pul bilan bo'ladi. Bunday vaqtarda yo'g'on cho'ziladi, ingichka uziladi"[10].

Yoki "O'g'ri" hikoyasiga murojaat qilaylik. Hikoyaga "Otning o'limi, itning bayrami" maqolini epigraf qilgan adib, hikoya voqealari bayonida "Quruq qoshiq og'iz yirtadi", "Berganga bitta ham ko'p, olganga o'nta ham oz", "O'ynashmagil arbob bilan, seni urar har bob bilan" [10] kabi maqollardan o'rinni foydalangan.

"Bashorat" hikoyasida "Ola qarg'a qag' etadi, O'z vaqtini chog' etadi" [10], "Yillar" hikoyasida "Birovning ishiga saratonda qo'lsovqotadi" [10] kabi maqollarni qo'llash orqali Abdulla Qahhor o'zini dindor qilib ko'rsatib, aslida dinning mohiyatini tushunmaydigan odamlarning kirdikorlarini fosh qiladi.

Xulosa. Talabalarning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirishda ajdodlarimizdan tomonidan yaratilib, bizgacha yetib kelgan merosning o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, og'zaki ijod yozma adabiyotdan oldin paydo bo'lgan va yozma adabiyotning shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Biroq ilm-fanning taraqqiyot etishi va insoniyatning ong darajasi rivojlanishi bilan bu jarayon o'zgarib boradi. Og'zaki ijodning bugungacha yashab qolishida yozma adabiyot ham o'ziga xos ta'sir ko'rsatgan. Ya'ni folklor va yozma adabiyotning bir-biriga o'zaro ta'siri xususida fikr yuritganda, ularning har ikkalasi ham bir-biriga ta'sir o'tkazganiga guvoh bo'lamiz. Dars jarayonida adabiy ta'sir masalalarini tushuntirishda esa

pedagogik vosita va texnologiyalardan foydalanish talabalarda qadriyatlarga nisbatan mehr uyg'otadi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. T.: "O'zbekiston". 2019. 342-b. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – B. 114.
2. Горький М. О литературе. Литературно-критические статьи. Советский писатель. Москва, 1953. Стр.48.
3. Mallayev N. Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2015. – 432 b.
4. Sharipova L. XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati badiiy taraqqiyotida folklor. Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: 2019. –B.16
5. Samandarov E.Yurakka yo'l. – T.: "G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti", 1990. – B.9
6. Sarimsoqov B. Folklorizmlar tipologiyasiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1980. – №4. – B. 40-41.
7. Navoiy A. Farhod va Shirin. 248-b. www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. Yusuf M. Saylanma.T.: "Sharq" nashriyoti, 2015. – B.22.
9. Qahhor A. Asarlar.Besh jildlik.Toshkent: "G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 1987. 289-b.
10. Xajiyeva D. Erkin Vohidov she'riyatida xalq maqollarining qo'llanilishi xususida ba'zi mulohazalar. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2022.№1, Б. 258-261.
11. Iroda, X., Feruza, A., Khurshida, K., & Umida, B. (2020). The importance of spiritual values in the upbringing of the harmoniously developed person in teaching and learning process. International Journal of Advanced Science and Technology, 29(5), 1496-1499.
12. Yusupov, D. F., Khajieva, I. A., & Sapaev, W. (2015). Activation of cognitive activity of students with the help of computer technology in the study of the humanities. Young Scholar, (9), 1226-1229.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Nº 1 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
маъсулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).